Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24319736

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

MINTAQA IQTISODIYOTIDA QISHLOQ XO'JALIGINI STATISTIK TAHLIL QILISHNING AHAMIYATI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

BUTANOVA DILNOZA RUSTAMOVNA, Phd
Ma'mun universiteti "Buxgalteriya hisobi" kafedrasi v.b prof
butanovadilnoza@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyatida qishloq xo'jaligi rivojlanish jarayonlarini statistik jihatdan tahlil qilish yoritilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, statistika, gepoteza, korrelyatsiya, tavsiflovchi statistika, xulosalovchi statistika, moda, mediana

Mintaqada qishloq xo'jaligini rivojlantirish istiqbolli sohalardan hisoblanib, u boshqa sohalarga nisbatan mutloq ustunlikka ega hisoblanadi. Chunki, hududning tabiiy-iqlimi va unda mavjud resurslar, aholini soha bo'yicha bilim va ko'nikmalari qishloq xo'jaligini boshqa sohalarga nisbatan ustun bo'lishini ta'minlaydi. Resurslar tanqisligini oshishi hamda ekologik muammolarning keskinlashuvi sohada mahsulot yetishtirish bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, barcha sohalarda bo'lgani kabi qishloq xo'jaligida ham innovatsion texnologiya va usullardan foydalangan holda sohani rivojlantirish, intensivlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.


Ushbu yo'nalishda amalga oshirilib kelinayotgan chora tadbirlar natijalarini soha rivoji dinamikasini statistik tahlili asosida qarab chiqamiz. Sohaning mintaqa iqtisodiyotidagi ahamiyatini asoslash maqsadida YaHM tarkibi dinamikasiga e'tibor qaratib o'tmoqchimiz (1-rasm). Keyingi dekadada viloyatda qishloq xo'jaligida yaratilgan qo'shilgan qiymatning YaHMdagi ulushi nafaqat yuqoriligicha saqlanib qolmoqda, balki barqarorligi ham ta'minlanmoqda. Natijada, yaratilayotgan qo'shilgan qiymatning deyarli yarmi qishloq xo'jaligi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Xususan, 2025 yilda yalpi hududiy mahsulot(YaHM)ning qiymati 62987,5mld. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, shunda qishloq xo'jaligining ulushi 34643 mld. so'mni qishloq xo'jaligining hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa 55,0 foizini tashkil qilishi fikrimiz tasdig'i bo'lib xizmat qiladi[18].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki qishloq xo'jaligi mintaqadagi boshqa sohalar rivojida ham alohida ahamiyat kasb etadi, jumladan aholi real daromadlarini shakllantirishda salmoqli ulushga ega bo'lgani holda yalpi talabni rag'batlantirib iqtisodiy o'sishni ta'minlasa, engil sanoatni zaruriy xom-ashyo

[18] www.stat.uz

Published: 05.06.2026
Cite this article: Butanova Dilnoza Rustamovna (2026). Mintaqa iqtisodiyotida qishloq xo'jaligini statistik tahlil qilishning ahamiyati (Xorazm viloyati misolida). Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319736
© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

bilan ta’minlab yalpi taklifni oshishida ahamiyatli hisoblanadi. Bundan tashqari qishloq xo‘jalik mahsulotlarini etishtirishdagi nisbiy ustunlikning mavjudligi sohani mintaqa eksport salohiyatini oshirishdagi muhim yo‘nalishlardan biri sifatida qaralishini ta’minlamoqda.



Keltirib o‘tilgan tahlil natijalaridan ma’lum bo‘lishicha mintaqada ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot hamda barqarorlikni ta’minlashda qishloq xo‘jaligini intensivlashtirish asosida yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash talab qilinadi. Chunki, sohaning YaHM yuqori ulushi ammo nisbatan past o‘sish sur’atiga ega bo‘lishi iqtisodiy o‘sish sur’atlarini biroz pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli omilli tahlil usulidan foydalangan holda mintaqada iqtisodiy o‘sishning qanchalik qismi qishloq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri kelayotganligini qarab chiqildi.

Mazkur o‘zgarishlarni yalpi mahsulot ishlab chiqarishga ta’sirini omilli tahlil usulidan foydalangan holda qarab chiqildi. Chunki, yapli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari miqdori o‘sish sur’atlari va barqarorligi ikkala sohadagi o‘zgarishlar natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Buni hisobga olgan holda ushbu sohalarning yalpi mahsulot hajmiga ta’sirini baholab o‘tildi (1-jadval).

Xorazm viloyatida yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti o‘sish sur’atiga sohalar ta’sirini bohalash bo‘yicha omilli tahlil natijalari

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlari

2010	2,5
2011	0,3
2012	10,3
2013	9,7
2014	6,2
2015	5,5
2016	7,0
2017	1,4
2018	-2,0
2019	3,8
2020	1,7
2021	2,9
2022	3,3
2023	4,4
2024	3,1
2025	4,9

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI

2020 yil ma’lumotlariga alohida e’tibor qaratib o‘tmoqchimiz, chunki ushbu yili YaHMdagi o‘sishni ta’minlashda qishloq xo‘jaligining hissasi yuqori qiymatga ega bo‘lgan. Boshqa tomondan esa qishloq xo‘jaligidagi yuqori o‘sish sur’atini ta’minlashda chorvachilikning roli yuqori ekanligi kuzatilmoqda. Ammo, shuni ham ta’kidlash lozimki, chorvachilik mahsulotlari yetishtirishda dehqon xo‘jaliklarining ustunlikka egaligi ikkala soha rivojini o‘zaro bog‘liq bo‘lishini ta’minlaydi.

Ikkala sohaning qishloq xo‘jaligi rivojidagi ahamiyatini hisobga olgan holda shun ta’kidlash mumkinki, dehqonchilikning ta’sirini beqaror ekanligini boshqa tomondan esa chorvachilik ta’siri nibatan barqarorligini ko‘rish mumkin. Shu sababli ikkala soha ta’sirini qo‘shimcha statistik usullardan foydalangan holda qarab chiqishni maqsadga muvofiq deb topdik. Chunki, omillar tahlil natijalariga ko‘ra dehqonchilik va chovarchilikni maqbul nisbatlarini ta’minlash va ularning

barqaror o‘sish sur’atlariga ega bo‘lishi mintaqada nafaqat qishloq xo‘jaligini balki YaHMning o‘sishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari aholi bandligini ta’minlash hamda real daromadlarini oshirishga ham xizmat qiladi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish hajmining keyingi dekadadagi o‘sish sur’atlari barqarorligiga e’tiborni qaratib o‘tmoqchimiz (1-jadval).

1.-jadval

Xorazm viloyatida qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik va chorvachilik o‘sish sur’atini tavsiflovchi statistik ko‘rsatkichlari

	Yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti o‘sish sur’ati
Среднее	**4,166666667**
Стандартная ошибка	**0,853880033**
Медиана	**3,8**
Мода	**#Н/Д**
Стандартное отклонение	**3,307063148**
Дисперсия выборки	**10,93666667**
Эксцесс	**0,09609969**
Асимметричность	**0,231570879**
Интервал	**12,3**
Минимум	**-2**
Максимум	**10,3**
Сумма	**62,5**
Счет	**15**
Уровень надежности (95,0%)	**1,831390528**

Tavsiflovchi statistik ko‘rsatkichlarni hisoblash bo‘yicha olingan natijalarga ko‘ra 2010-2025 yillarda mintqada yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o‘rtacha o‘sish sur’ati 4,0 foizni tashkil qilgan. Mazkur ko‘rsatkichni sohalar kesimida qarab chiqadigan bo‘lsak dehqonchilikda 3,3 va chorvachilikda 4,9 foizni

tashkil qilayotganligini ko‘rish mumkin. Aniqlangan o‘rtacha qiymatning standart xatoligiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, eng past o‘sish sur’atiga ega bo‘lgan dehqonchilikda eng katta qiymatga ega bo‘lmoqda. Bundan xulosa qiladigan bo‘lsak, eng barqaror o‘sish sur’ati chorvachilikka xos bo‘lmoqda, dehqonchilik esa nobarqaror o‘sish sur’atiga ega bo‘lmoqda.

Viloyatda qishloq xo‘jaligini barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlash uchun dehqonchilik bilan bog‘liq bo‘lgan tavakkalchiliklarni kamaytirish, sohada innovatsion texnologiyalardan samarali foydalangan holda resrurs sig‘imi kam bo‘lgan mahsulotlarni yaratish talab qilinadi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda subyektlar ulushi hamda ularda rersurslardan foydalanish samaradorligiga ham alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA NORASMIY BANDLIKNI ANIQLASH VA IJTIMOIY HIMOYA TIZIMIGA INTEGRATSIYA QILISH

HAYITMURODOV ULUG‘BEK ULASH O‘G‘LI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
NORQULOVA ZIYODA NABI QIZI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun’iy intellekt asosida norasmiy bandlikni aniqlash va uni ijtimoiy himoya tizimiga integratsiya qilish masalalari yoritiladi. Tadqiqotda mashinaviy o‘rganish usullariga asoslangan klassifikatsiya modeli taklif etilib, norasmiy bandlikni aniqlash imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi. Natijalar sun’iy intellektdan foydalanish norasmiy sektorni qisqartirish, ijtimoiy sug‘urta qamrovini kengaytirish va ijtimoiy siyosat samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, norasmiy bandlik, mashinaviy o‘rganish, klassifikatsiya modeli, ijtimoiy himoya, ijtimoiy sug‘urta, raqamli iqtisodiyot, ma’lumotlar tahlili, mehnat bozori, davlat siyosati

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyotda norasmiy bandlikni qisqartirish va ijtimoiy himoya tizimi qamrovini kengaytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Norasmiy sektorda band bo‘lgan aholining katta qismi ijtimoiy sug‘urta tizimidan chetda qolayotgani ularning daromad xavfsizligi va ijtimoiy himoyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ushbu muammolarni hal etish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, PF-60 - 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Prezident farmonida aholi bandligini ta’minlash, norasmiy bandlikni qisqartirish hamda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi mehnat bozorini boshqarishda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu sharoitda sun’iy intellekt asosida norasmiy bandlikni aniqlash va uni ijtimoiy himoya tizimiga integratsiya qilish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt va ma’lumotlarga asoslangan yondashuvlar ham mehnat bozori tahlilida qo‘llanilmoqda. Ajay Agrawal sun’iy intellektni qaror qabul qilish xarajatlarini kamaytiruvchi vosita sifatida baholab, u iqtisodiy jarayonlarni aniqroq prognozlash va yashirin hodisalarni aniqlash imkonini berishini ta’kidlaydi. Bu esa norasmiy bandlikni aniqlashda yangi imkoniyatlar